

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

TABIIY FANLAR FAKULTETI

BIOLOGIYA YO'NALISHI

BOTANIKA VA O'SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI KAFEDRASI

Anvarova Gavhar

**“PAYARIQ TUMANI DALALARIDA TARQALGAN DORIVOR
O'SIMLIKLAR VA ULARDAN FOYDALANISH”**

«5420100 - biologiya» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

dots.Umurzakova Z.I.

«___»_____ 2013

Bitiruv malakaviy ishi botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2013 yil 14 iyundagi majlisida muhokama qilindi va ximoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №11).

Kafedra mudiri:

dots. Haydarov X.Q.

Bitiruv malakaviy ish YaDAK ning 2013 yil 26 iyunidagi majlisida himoya qilindi va foizga baholandi (bayonnoma №8).

YaDAK raisi _____

SAMARQAND – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. ADABIYOTLAR TAHLILI.....	5
Dorivor o'simliklar to'g'risida.....	5
Dorivor o'simliklarni himoya qilish.....	6
1.3. Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklardan foydalanish.....	8
2. TADQIQOT SHAROITLARI, OBYEKTI VA USLUBLARI	
Tadqiqot sharoitlari.....	25
Tadqiqot obyekti.....	25
Tadqiqot uslublari.....	27
3. TADQIQOT NATIJALARI.....	28
Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarni oila, turkum va turlar bo'yicha taqsimlanishi.....	28
Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarni botanik tavsifi.....	33
XULOSALAR.....	64
TAVSIYALAR.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	66

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Insoniyat qadimdan kasallikni davolash va uning oldini olishda tabiatning in'omi – o'simlik dunyosidan foydalanib kelgan. Tabiat insonga hamma boyligini bergan. Inson o'zi uchun kerak bo'lgan – havo, suv, oziq – ovqat, kiyim – kechak, turli sohalar uchun zarur bo'lgan ashyolarni tabiatdan oladi.

Inson hayotida o'simlik dunyosining ahamiyati juda katta. Uni o'rab turgan yashil okean yerdagi hayotning manbaidir. Yashil o'simliklar o'z organizmidagi doim ro'y beradigan fotosintez jarayoni tufayli atmosferani kislorod bilan boyitadi va havoni ortiqsa karbonat angidrid bilan tozalaydi.

O'simliklar havodagi kasallik keltiruvchi bakteriyalarni o'ldiradi va uchib yuruvchi moddalar – fitosidlar bilan to'yintiradi hamda changda tozalovchi filtr vazifasini bajaradi. Iqlim va mikroiklim holati aksariyat hollarda o'simliklarga bog'liq.

O'simlik dunyosi inson sog'lig'ini saqlovchi asosiy vosita sifatida unga xizmat qilib kelmoqda. Odamlar ovqat uchun o'simlik mevasi, ildizi, bargi, va gullarini yig'ib yurganlarida ba'zilarini og'riqni qoldiruvchi, oqib turgan qonni to'xtatuvchi, yaralarni davolovchi ta'sirlari borligini, ya'ni dorivor ekanligini sezganlar va ulardan keyinchalik shifobaxsh vosita sifatida foydalanganlar. Ularning ko'pchiligini bundan uch yarim ming yil avval Misr shifokorlari qo'llaganlar va shu vaqtgacha bu o'simliklar o'zining dorivorlik ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot maqsadi: Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga tavsiya etish.

Tadqiqot vazifalari:

- Adabiyot tahlilini qilish.
- Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarni aniqlash.
- Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarga botanik tavsif va rasmlarni berish.

- Dorivor o'simliklardan foydalanishni aniqlash.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish boyicha ish birinchi marotaba qilindi. Dorivor o'simliklarning 17 oila 25 turkum va 25 turga kirishi aniqladi. Eng ko'p tur Qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasida (4 tur, 16%), keyingi o'rinda Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasida (3 tur), uchinchi o'rinda Karamdoshlar (Brassicaceae) va Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilalarida (2 turdan). Hamma qolgan turkumlarda 1 turdan mavjud.

Dorivor o'simliklar hayotiy shakli bo'yicha o'tlar bo'lib, buta, chala buta va daraxt shakllari uchramaydi. Biz olib borgan izlanishlardan ma'lum bo'ldiki oila vakillarining 25 turdan iborat bo'lib, hayotiy shakliga ko'ra bir yillik o'tlar (9 tur), ikki yillik o'tlar (1 tur), ko'p yillik o'tlar (15 tur) o'simliklar ekanligi o'rganildi.

Ishning tuzilishi va hajmi:

Malakaviy bitiruv ishi kirish, 3 bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 25 ta iborat. Ishning matni kompyuterda yozilgan 67 betni o'z ichiga oladi, unda 2 ta jadval, 17 rasmlar berilgan.

1. ADABIOTLAR TAHLILI

1.1. Dorivor o'simliklar to'g'risida

Tibbiyotda hamda xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash, ularning oldini olish va dorivor preparatlar tayyorlashda ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar deb yuritiladi.

Dorivor o'simliklarning ba'zan hamma qismlari (yer ustki va yer ostki organlari), ba'zida esa ayrim organlari – bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i yoki ildizi, ildizpoyasi va tugunaklaridan foydalaniladi. Buning sababini mevali daraxtlar va sabzavot o'simliklar misolida tushintirish qulay. Masalan, olma, o'rik, shaftoli, anor, anjir, tok, nok, olcha, gilos kabi daraxt va butalarning mevalari; kartoshkaning tugunagi; sabzi, sholg'om, turp va lavlagining ildizmevasi; qovun, tarvuz, qovoq, garmdori, baqlajonlarning mevalari; mosh, loviya, guruch (sholi), no'xatlarning urug'i (doni); karam, salatning barglari ovqatga ishlatiladi. Bunga sabab aynan shu aytib o'tilgan organlarda inson va hayvonlar organizmi uchun zarur bo'lgan oziq va boshqa moddalar ko'p to'planadi. [2,3]

Dorivor (yoki shifobaxsh) o'simliklarda ham xuddi shunday kasallikni davolash xususiyatiga ega bo'lgan moddalar ulardan birining ildizi va ildizpoyasida ko'p yig'lsa, ikkinchisining bargida yoki gulida va boshqa qismlarida to'planadi. Ayni shu shifobaxsh moddalar ko'p to'planadigan o'simlik qismlaridan tibbiyot va tabobatda kasalliklarni davolashda foydalaniladi va ular dorivor o'simliklar mahsulotlari (ba'zan xom ashyosi) deb ataladi. [1]

Dorivor o'simliklar mahsulotida ko'p to'planadigan va kasalliklarni davolash xususiyatiga ega bo'lgan moddalar dorivor o'simliklarning biologik faol moddalari (BMF) deyiladi. [20,21,22]

O'simliklarning biologik faol moddalari kimyoviy tuzilishi, zaharliligi, ya'ni organizmga ta'siri va turg'unligi jihatidan har xil bo'ladi.

Dorivor o'simliklarning mahsuloti sifatida ularning ildizi, ildizpoyasi, bargi, guli, mevasi, urug'i, yer ustki qismi (o'ti), tugunagi, piyozboshi (piyozi) va kurtaklaridan foydalaniladi. Masalan, tibbiyotda gulxayri, andiz, igir, ravoch,

shirinmiya, (qizilmiya), valeriana, yetmak (bex) kabilarning ildizi va ildizpoyalaridan, oshpiyoz va sarimsoqning esa piyozidan foydalanilsa, ko'pchilik o'simliklarning yer ustki qismi ishlatiladi. Jumladan, yalpiz, angishvonagul, mingdevona, bangidevona, oqqaldirmoq, zupturum va boshqalarning bargi; moychechak, tirnoqgul, dastarbosh, bo'znoch, marjondaraxt va boshqalarning guli; na'matak, jumurt, maymunjon, chernika, shumurtlarning mevalari; zig'ir, xantal, yeryong'oq, bodom, kuchalalarning urug'i shifobaxsh vosita sifatida qo'llaniladi. [23,24]

1.2. Dorivor o'simliklarni himoya qilish

O'zbekistonning boy florasi foydali, shu jumladan, xalq va ilmiy tabobatda turli xastaliklarni davolashda ishlatiladigan dorivor o'simliklari bilan asrlar osha kishilarni o'ziga jalb etib keladi. Respublikamizda tog'rayhon, kiyiko'ti, ermon (achchiq shuvoq), qizilcha, qator gulli afsonak, oddiy dalachoy, dala qirqbo'g'imi, oddiy bo'yimodaron va Turkiston arslonquyuqlarining yer utski qismlari, katta zupturum va qoraqobuq barglari, na'matak mevasi, bodom urug'i kabi dorivor o'simliklar har yili katta miqdorda yig'ib olinadi. [17,18]

Dorivor o'simliklar zaxirasi qancha ko'p bo'lmasin, agar u har yili tartibsiz ravishda yig'ib olinsa, vaqti kelib bu katta zaxira ham tamom bo'ladi. Oltoyda yovvoyi holda o'sib, chakalakzorlar hosil qiladigan lavzeya va pushti rodiola (tilla ildiz) hamda O'zbekistonning ayrim viloyatlarida o'sadigan gangituvchi bozulbang va Viktor qoraqobug'i kabi o'simliklar "boshiga" ham shunday kun kelib qoldi. Endilikda bu o'simliklar tabiiy o'sish joyidan yig'ilmaydi. Chunki ular "Qizil kitob" ga kiritilgan. Zarur bo'lsa, ularni maxsus dalalar – plantasiyalarda o'stirish lozim. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. [9,11,]

Shifobaxsh giyohlar o'simliklar dunyosining ajralmas bir qismi sifatida o'zbek xalqining milliy boyligi hisoblanadi. Uni bekordan-bekorga poymol va oyoqosti qilish huquqi hech kimga berilmas ekan. Aksincha, bu boylik O'zbekiston

Respublikasida qonuni asosida Davlatimiz tomonidan himoya qilinadi. Shu bilan birga, dorivor o'simliklar o'simliklar dunyosining tarkibiy qismi sifatida Respublikamizning ekologik vaziyati va muvozanat holatini saqlashda katta ahamiyatga egadir. [12,13,14]

Dorivor o'simliklar muhofazasi ularni yig'ib olishni rejalashdan, ya'ni dorivor mahsulotni qaysi tumandan va qaysi daladan qancha, qay vaqtda tayyorlash kerakligini aniqlash hamda o'simliklarni yig'uvchilar bilan suhbat o'tkazishdan boshlanadi.

Dorivor giyohlarning tabiiy zaziralarini va ko'p tarqalgan yerlarini tabiatda yo'q bo'lib ketishdan saqlash maqsadida quyidagilarga qat'iy rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Dorivor o'simliklarni yig'ish tegishli idoralar tomonidan tasdiqlangan qat'iy reja bo'yicha hamda shu ishga ruxsati bor idoralar va shaxslar rahbarligida olib borilishi lozim. Ayni shu rejada shifobaxsh giyohlarning ko'p o'sadigan joylaridan mahsulot qaysi yili, qaysi daladan yig'ilishi va qaysi dalaga necha yil dam berilishi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

2. Bir joydan dorivor o'simlik yig'ilgandan so'ng shu dalaga ko'rsatmada belgilangan muddatdan keyin kelish zarur.

O'simliklarning ayrim qismlari terib (o'rib va kovlab) olingandan so'ng uning tiklana olish xususiyati va muddatini hamda ayrim o'simliklarning qayta tiklanish va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda yig'ib olishning quyidagi muddatlari tavsiya qilinadi. [15,16]

- bir yillik o't o'simliklarning yer ustki qismini (guli, bargi va poyasi) 2 yilda bir marta, ko'p yillik o't o'simliklarni esa 4-16 yilda bir marta yig'ish mumkin.

- ko'p yillik o't o'simliklarning yer ustki qismlarini (ilidz, ildizpoya, tugunak va piyozini) (15-20 yilda (ayrimlarini 6-8; 10 yilda) bir marta yig'ish mumkin.

3. Dorivor o'simliklarning tabiiy sharoitda ko'p o'sadigan joylarini saqlab qolish maqsadida ularning faqat dorivor qismlarini kerakli miqdorda yig'ish lozim.

Agar o'simlikning bargi, guli, mevasi yoki yer ustki qismini yig'ish kerak bo'lsa, uni ildizi bilan sug'urib olish yaramaydi.

4. Shifobaxsh giyohlarni yig'ish jarayonida ularning atrofidagi boshqa o'simliklarga zarar yetkazmaslik kerak.

5. O'simliklarning yer ostki organlarini qazib olishdan oldin, shu o'simlik tabiiy sharoitda yo'q bo'lib ketmasligi uchun, uning pishib yetilgan mevasini terib olib atrofga sochib yuborish, so'ngra ildiz va ildizpoyasini qazib olish zarur.

6. Tegishli idoralardan maxsus ruxsatnomasi bo'lmagan shaxslarga har qanday o'simlik mahsulotlarini yig'ish qat'iy man etiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatmalar faqat yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarga tegishli.

Mamlakatimizning o'simliklar dunyosi xalq boyligi hisoblanib, uni barchamiz himoya qilishimiz shart. Bu xayrli ishda avvalo, shu ishga daxldor va javobgar idoralar, muassasalar va shaxslar, jamoa va davlat xo'jaliklari hamda ularning boshliqlari qatnashishlari lozim.

1.3. Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklardan foydalanish

Burchoqdoshlar oilasi - Fabaceae

Oddiy achchiqmiya - *Goebelia alopecuroides* (L.) Bge

Achchiqmiya turlari tarkibida alkaloidlar bor. Alkaloidlar yig'indisidan paxikarpin, Martin va boshqa alkaloidlar ajratib olingan.

Xalq tibbiyotida achchiqmiya turlarining yanchilgan urug'i ishtaha ochadigan dori sifatida ishlatiladi. [11,14]

Ilmiy tibbiyotda achchiqmiya turlari alkaloidining preparati-paxikarpin yodgidrat gipertoniya, mayda qon tomirlar spazmida, muskul distrofiyalarida hamda tug'ruqni tezlashtiruvchi vosita sifatida qo'llanadi. Bulardan achchiqmiya preparati gush (ekzema) va ba'zi teri kasalliklarining davolashda ham ishlatiladi.

Gazandadoshlar oilasi - Urticaceae

Ikki uyli gazanda - *Urtica dioica* L.

Gazanda bargi vitaminlarga boy mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida 1600 mg % gacha S, 4,52 - 7,58 mg % K_1 va V_2 vitaminlari, 14-50 mg % karotinoidlar, pantoten va boshqa kislotalar bor. Vitaminlardan tashqari barg tarkibida flavonoidlar, 5% gacha xlorofill, fenol kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Gazanda bargining asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari vitaminlar, flavonoidlar va boshqa birikmalar kompleksi hisoblanadi.

Amaliyotda gazandaning bargidan foydalaniladi. Chunki uning tarkibida K_1 , S, V_2 vitaminlari, karotin, ko'p miqdorda xlorofill va boshqa moddalar bor.

Ibn Sino o'simlik mevasini nafas qisish kasalligini davolashda, bargini esa qon oqishini to'xtatuvchi va surgi dori sifatida qo'llagan.

Xalq tabobatida o'simlik bargidan tayyorlangan damlama, qaynatma va barg kukuni turli kasalliklarda (nafas qisish, ko'rak og'rig'i, bod) burun, og'izdan (milkdan) va bavosil xastaligida qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladi.

O'simlikning qon oqishini to'xtatish ta'siri uning tarkibidagi K_1 , S vitaminlarga bog'liq. K_1 vitamini qon ivish jarayoni uchun zarur bo'lgan omil – protrombinning jigarda hosil bo'lishini tezlashtiradi, S vitamini esa mayda qon tomirlar devorining o'tkazuvchanligi kamaytiradi. Shu sababdan, gazanda bargidan tayyorlangan va olingan preparatlar (damlama, suyuq ekstrakt) tibbiyotda turli sabablar tufayli ichki organlardan (o'pkadan, buyrakdan, bachadondan, oshqozon-ichakdan) qon ketishida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'simlik preparatlari ta'sirida bachadan mushaklarining qisqarishi, tonusi oshadi. Bu esa ushbu preparatlarni tug'ruqdan keyingi davrda bachadonning qisqarishi va tonusning sustligi sababli oqishini to'xtatish maqsadida qo'llash o'rinli ekanligini ko'rsatadi. Shu maqsadda o'simlik damlamasini (1:10) 3-5 kun davomida kuniga 3-4 marta ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichish tavsiya etiladi.

Gazandaning suyuq ekstrakti kuniga 3 mahal ovqatdan 30 daqiqa oldin 25-30 tomchidan ichiladi.

O'simlik bargi me'da kasalliklarida hamda qon ketishini to'xtatadigan yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Gulxayridoshlar oilasi - Malvaceae

Dorivor gulxayri - *Althea officinalis* L.

Gulxayri turlarining ildizi tarkibida 11 % gacha shilliq moddalar, 37 % kraxmal, 20 % dan ko'proq qandlar, pektin va boshqa moddalar bor.

Ildizning asosiy ta'sir ko'rsatuvchi birikmalari shilliq moddalari hisoblanadi.

Gulxayri turlarining ildizidagi shilliq moddalar yallig'langan shilliq qavatlarni qoplab olib, uni tashqi ta'sirlardan saqlaydi. Shu bilan yallig'lanish tez bartaraf bo'lishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, balg'amni suyultirib, uning chiqib ketishini osonlashtiradi, yo'talni kamaytiradi.

Gulxayri qadim zamonlardan xalq tabobatida turli kasalliklarda ishlatilib kelingan. Ibn Sino uning ildizi, bargi va urug'idan tayyorlangan damlama bilan yo'tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan. Hozirda ham gulxayri ildizidan xalq tabobatida yo'tal, ko'kyo'tal, o'pka shamollashi, nafas qisishi, tamoq yallig'lanishi, ko'rak og'rig'i xastaliklarida yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi sifatida foydalaniladi.

Tibbiyotda gulxayri ildizining fitopreparatlari (damlama, quruq ekstrakt, sharbat) nafas yo'llari yallig'linishida (laringit, faringit, traxeit, bronxit, bronxopnevmoniya, bronxial asta) keng miqyosda ishlatiladi.

O'simlik ildizidan tayyorlangan qaynatma (6 g maydalangan ildiz 200 ml qaynatilib sovutilgan suvda damlanadi) 1/2 – 1/3 stakandan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Gulxayri balg'am ko'chiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan qator yig'malar tarkibiga kiradi.

Mukaltin preparati gulxayrining yer ustki qismidan tayyorlangan. U o'z tarkibida polisaxaridlar aralashmasini saqlaydi. Tabletkada (0,05 g) holida ishlab chiqariladi. Kuniga ovqatdan oldin 1-2 marta tabletkadan ichiladi.

Ziradoshlar oilasi - Apiaceae

Oddiy (anissimon) arpabodiyon - *Pimpinella anisum* L.

Arpabodiyon mevasining tarkibida 1,2 – 3,2% (ba'zan 6%gacha) efir moyi, 8 – 28,4% yog', oqsil va boshqa moddalar bor.

Mevaning asosiy ta'sir etuvchi qismi uning tarkibidagi efir moyi, efir moyining asosiy qismi esa anetol (moy tarkibida 80-90% anetol bo'ladi) hisoblanadi.

Arpabodiyonning efir moyi o'ziga xos yoqimli hidli, shirin mazali, och sariq rangli yoki rangsiz suyuqlikdir.

Arpabodiyon mevasi o'z tarkibida saqlagan efir moyi hisobiga undan tayyorlangan va olingan preparatlar yallig'lanishda qarshi, balg'am ko'chiruvchi, spazmolitik (silliq mushaklarni bo'shashtiruvchi) va qisman mikroblarga qarshi ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega.

Shuning uchun uni turli shakldagi dori vositalari sifatida nafas yo'llarining shamollashida (laringit, traxeit, bronxit, zotiljam va boshqalar) keng miqiyosda ishlatiladi va yaxshi samara beradi.

Ibn sino arpabodiyon mevasini nafas olish qiyinlashganda uni yengillashtirish uchun va terlatuvchi dori sifatida hamda boshqa kasalliklarda ham qo'llashni tavsiya etgan.

Xalq tabobatida o'simlik mevasidan tayyorlangan damlama terlatuvchi, siydik va o't haydovchi, ishtaxa ochuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Hozir tibbiyotda arpabodiyonning mevasidan tayyorlangan damlama (mevaning 1 choy qoshig'i 1 stakan qaynab turgan suvga solib damlanadi) 1/4 stakandan kuniga 3-4 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin surunkali bronxidlarda, yo'talni yumshatish uchun, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ichiladi.

Bundan tashqari, arpabodiyonning efir moyi qo'shilgan kompleks preparatlar ham mavjud. Ko'krak eleksiri (30-40 tomchidan) va novshadil Ye – arpabodiyon tomchisi (10-15 tomchidan) shular jumlasidandir. Nafas yo'llari shamollaganda ichiladi.

Zupturumdoshlar oilasi - Plantaginaceae

Katta zupturup - *Plantago major* L.

Zupturum turlarining bargi va urug'i tarkibida shilliq, achchiq, oshlovchi moddalar, flavonoidlar va rinantin glikozidi bo'ladi. Barglari vitaminlarga ham boy. Ular tarkibida S va K vitaminlar, karotin, (faktori) va limon kislotasi bor.

Barglari asosiy ta'sir qiluvchi birikmalari shilliq moddalar, vitaminlar va T-omil, urug'ning shilliq moddalari hisoblanadi.

Burga zupturum urug'i va suv ta'sirida shishadi. Bu jarayon ishqoriy sharoitda tezlashadi. Shu sababdan, o'simlikning urug'i ichilganda ichni yumshatadi va suradi. Uning tarkibidagi shilliq moddalar oshqozon-ichak shilliq pardalarini o'rab olib, ular yallig'lanishiga qarshi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, gastritlarda, oshqozon, 12 barmoq ichak yara kasalligida, surunkali kolitda o'simlikdan tayyorlangan qaynatma (10 g urug'i 200 ml suvda) ichiladi.

Ibn Sino katta zupturum bargi bilan qiyin bittadigan va xavfli yara, shishlarni, jigar, buyrak kasalliklarini davolagan.

Tabobatda katta zupturum bargidan tayyorlangan damlama yoki barg shirasi turli kasalliklarni (teri, tamoq, ko'z), shu jumladan, yo'g'on ichak yallig'lanishini (kolitni) davolashda ishlatiladi.

Tibbiyotda zupturum turlarining preparatlari (damlama, nastoyka, barg shirasi va undan tayyorlangan plantoglyusid preparati) me'da-ichak kasalliklarida (gastrit, yara kasalligi, enterokolit) davo uchun ishlatiladi.

Ituzumdoshlar oilasi - Solanaceae

Oddiy bangidevona - *Datura stramonium*

Bangidevona bargining tarkibida 0,23 – 0,37% alkaloidlar, efir moyi, karotin, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi. Giossiamin, atropin va skopolamin

alkaloidlari mahsulotning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari hisoblanadi.

Bangidevonaning barglarida belladonna va mingdevonaga o'xshash alkaloidlar (giossiamin, atropin, skopolamin) topilgan.

Meksika bangidevonasi mevasidan olingan asosiy preparat skopolaminning gidrobromid tuzi hisoblanadi. Skopolamin o'z farmakologik ta'siriga ko'ra ar atropinga o'xshash, lekin markaziy asab sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi bilan undan farqlanadi, periferik ta'siri bo'yicha atropin kabi. O'simlik bargi spazmatik dori sifatida qorin sanchiqlarida va mingdevona barglari bilan birga astmaga qarshi qo'llaniladigan sigaret (astmotin) tarkibiga qo'shiladi.

Asosan, skopolamin gidrobromin (0,5 – 1 ml) ampula ko'rinishida ishlab chiqariladi. Aeron tabletkasi tarkibida skopolamin va giossiamin bor. Tabletkasi (0,0005 g) qusishga qarshi qo'llanadi.

Ituzum - *Solanum nigrum* L.

Ituzumning pishmagan mevasi va yer ustki qismi tarkibida glikoalkaloidlar, vitaminlar, organik kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Xalq tibbiyotida ituzum bargidan, mevasidan tayyorlangan damlama yoki pishgan mevasi bolalardagi gijjalarni tushiradigan dori sifatida hamda tomoq og'rig'i, bo'g'ma kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Gulidan tayyorlangan damlama bod kasalligida hamda siydik haydovchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Yangi uzib olingan ituzum bargidan bosh og'rig'ini qoldirishda va yaralarni davolashda foydalaniladi. Buning uchun bargni maydalab ezib, boshga (bosh og'riganda) yoki yara ustiga qo'yiladi. Bargning shirasi quloq og'rig'iga, surunkali tumov va burun ichidagi yarani davolash uchun quloq va burunga tomiziladi.

Qora mingdevona - *Hyoscamus niger* L

Qoramingdevonaning hamma qismida (bargida, 0,045 – 0,1%, poyasida 0,02%, urug'ida 0,06 – 0,1%, ildizida 0,15 – 0,17%) alkaloidlar bor.

Giossiamin, atropin va skopolamin alkaloidlar mahsulot tarkibidagi asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol birikmalardir. Mingdevona bargida turli alkaloidlar (giossiamin, skopolamin, atropin) mavjud. Shuning uchun o'simlik preparatlarining asosiy ta'siri atropinga o'xshaydi. Lekin ularning ishlatilishi chegaralangan. Asosan o'simlik bargining preparati – quruq ekstrakti belladonna preparatlari singari spazmalitik (silliqlik muskullar qisqarishini yo'qotish) va qorin sanchig'ini bartaraf etish maqsadida ishlatiladi. O'simlik bargidan tayyorlangan moy nevrologiyada, miozitta (mushaklar shamollashida), bod kasalligida badanga surtiladi. "Soliniment" preparati tarkibida ham shu o'simlik moyi bor.

Karamdoshlar oilasi - Brassicaceae

Sarept xantali - Brassica Juncea (L.) Czern.

Xantal turlarining urug'i tarkibida sinigrin glikozidi, mirozin fermenti, 1,17 – 2,89 % efir moyi, 23 - 47 % yog' va 26 % gacha oqsil moddalari bo'ladi.

Urug'ning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddasi sinigrin glikazidining mirazin ta'sirida parchalanishidan xosil bo'lgan xantal efir moyi hisoblanadi.

Xantal turlarining urug'i, kukuni va undan olingan efir moyi tibbiyotda dorivor vosita sifatida foydalaniladi.

Ibn Sino xantal urug'ini isitma chiqishi bilan kechadigan turli xil shamollash, bod va boshqa kasalliklarga tavsiya etgan. Chunonchi, yanchilgan xantal urug'ini asalga aralashtirib, nafas yo'llarining surunkali kasalliklarida iste'mol qilish buyuriladi.

Tibbiyotda xantal urug'ining dorivor preparatlari (xantal qog'ozi – gorchichnik, urug' kukuni – yog'i ajratib olingandan so'ng qolgan kunjarasi, xantal efir moyining spirtidagi 2% li eritmasi) nafas yo'llarining shamollashida, yo'talda va boshqa yallig'lanish bilan kechadigan xastaliklarda (bod va boshqalar) davo qilish uchun shamollash natijasida tananing og'rigan joyiga, yo'talganda va

ko'krak shamollashida xantal qog'ozi iliq suvda namlab, ko'krak sathiga qo'yiladi yoki xantal efir moyining spirtidagi eritmasi surtiladi.

Agarda xantal qog'ozi – gorchichnik bo'lmasa, uy sharoitida uni tayyorlash mumkin. Buning uchun xantal kukuniga iliq suv qo'shib, quyuq atala tayyorlanadi. 20-30 daqiqa o'tgach, atala qog'oz varag'iga yupqa qilib surtiladi va ustini doka bilan yopib tanaga yopishtirib qo'yiladi.

Oddiy jag'-jag' - Carsella bursa-pastoris Medic.

Jag'-jag' yer ustki qismi tarkibida 1200 mg % S va K₁ vitaminlari, burso va boshqa kislotalar, gissopin glikozidi, xolin, asetilxolin, inozit, flavonoidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

Jag'-jag'ning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari uning tarkibidagi vitaminlar, xolin, asetilxolin, inozit va flavonoidlar kompleksi hisoblanadi.

Tibbiyotda foydalanish uchun jag'-jag'ning yer ustki qismidan Galen preparatlari tayyorlanadi. Jag'-jag' yer ustki qismi tarkibida K₁, S vitaminlari, oshlovchi va boshqa moddalar mavjud.

Xalq tabobatida o'simlikning damlamasi va qaynatmasi turli (o'pka, gipertoniya, buyrak) kasalliklarida qo'llaniladi. Bulardan tashqari, burundan qon ketishida qon oqishini to'xtatish maqsadida ham ishlatiladi.

Laboratoriyada hayvonlarda o'tkazilgan tekshirishlar natijasida jag'-jag' preparatlarining yuqori darajada qon ivishini tezlashtiruvchi xususiyati borligi aniqlangan. Ayniqsa, qon oqishini to'xtatish uchun zarur bo'lgan fibrin tolalarining kam hosil bo'lishi bilan bog'liq qon oqishida o'simlik ta'siri yaxshi nomoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'simlik preparatlarida (damlama, suyuq ekstrakti) bachadon mushaklarining qisqarishini, ularning tonusi-tarangligini oshirish xususiyati borligi ham aniqlangan.

Ushbu olingan natijalarga asoslangan o'simlik preparatlari (damlama, suyuq ekstrakti) tibbiyotda, asosan, qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida ichki organlardan (o'pka, me'da-ichak, buyrak va boshqa), ayniqsa tug'ruqdan keyingi anotik qon ketishida va boshqa sabablar bilan qon oqishida qo'llaniladi.

Ko'pincha, jag'-jag' boshqa shunga o'xshash o'simliklar (qirqbo'g'in, bodrezak va boshqa) bilan birga berilganida uning bachadondan, buyrakdan qon ketishini to'xtatishda samarasi yaxshi nomoyon bo'ladi.

O'simlik o'tidan tayyorlangan damlama (1:10) qon oqishini to'xtatish uchun kuniga 4-5 marta ovqatdan keyin bir osh qoshiqdan beriladi.

Jag'-jag'ning suyuq ekstraktini tug'ruqdan keyingi qon ketishida kuniga uch marta 20 tomchidan iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Jag'-jag' yer ustki qismi qon oqishini to'xtashuvchi yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Ko'knordoshlar oilasi - Papaveraceae

Qizg'aldoq - *Royemeria refracta* DC.

O'simlik gullaganda gulbargi yig'iladi. Qizg'aldoq tarkibida alkaloidlar, organik kislotalar, vitamin S, qandlar, oshlovchi, bo'yoq va boshqa birikmalar bor.

Xalq tibbiyotida qizqaldoq gulbargi shirasini oftob urganda ichiladi va shuningdek og'rigan ko'z yuviladi.

Kovardoshlar oilasi - Capparidaceae

Tikanli kovul - *Capparis spinosa* L.

Kovul yer ustki qismi tarkibida 150mg % gacha S vitamini, flavonoidlar (0,32 % rutin, kversetin va boshqalar), staxidrin, saponinlar va boshqa moddalar, mevasida 36 % gacha qandlar, 1,46 % flavonoidlar, tioglikozidlar, urug'ida 25-36 % yog' va ildizida-flavonoidlar, 1,2 % alkaloidlar (staxidrinlar va boshqalar), kumarinlar va boshqa moddalar bo'ladi.

Kovulning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari uning tarkibidagi yuqorida keltirilgan birikmalar kompleksi bo'lishi mumkin.

Tabobatda kovulning ildizi, mevasidan foydalaniladi. Ularning tarkibida rutin va boshqa birikmalar bor.

Ibn Sino o'simliklardan turli kasalliklarni (bavosil, nafas qisish, me'da-ichak kasalliklari va boshqa) davolashda foydalangan.

Xalq tabobatida o'simlik qaynatmasi bavosil, sariq kasalliklarida va tish og'rig'ida, milkni mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

Kovul ildizidan tayyorlangan preparatlarda (nastoyka, qaynatma) (1:10) qon ivishini tezlashtiradigan, qon ketishini to'xtatadigan xususiyatlar borligini aniqlangan. Shu sababdan o'simlikning Ushbu preparatlari ichki organlardan qon ketishida tavsiya etiladi.

Ra'nodoshlar oilasi - Rosaceae

Beshbarg - *Potentilla repens* L.

O'simlik tarkibida qandlar, organik kislotalar, vitamin S, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Abu Ali ibn Sino beshbarg ildizpoyasining qaynamasini Tish og'riganda, quymich nervi shamollaganda, o'pka va me'da kasalliklarida ishlatgan. Quritilmagan ildizpoya shirasi bilan jigar kasalligini davolagan. O'simlik bargidan esa isitmalayotgan bemorlarni davolashda foydalangan.

Ro'yandoshlar oilasi - Rubiaceae

Bo'yoqdor ro'yan - *Rubia tinctorum* L.

Ro'yan turlarining ildizpoya va ildizlari tarkibida 5-6% antrasen unumlari (anizarin, ruberetrin kislota va boshqalar), 15% gacha qandlar, kislotalar, pektin va boshqa moddalar bo'ladi.

Mahsulotning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari ular tarkibidagi antrasen unumlari hisoblanadi.

O'simlikning ildizi va ildizpoyasi tarkibida turli biologik faol moddalar (antraxionlar, ularning hosilalari va boshqalar) saqlanadi. Ular ta'sirida o'simlik Galen preparatlari (quruq ekstrakti tabletka holida) buyrak va siydik qopida

joylashgan toshlarni (ayniqsa, fosfat tuzlari, kalsiy va magniy oksalatlarini) yumshatadi va ularning siydik bilan chiqishini osonlashtiradi.

Shunga asosan ro'yan preparatlari buyrak va siydik yo'li tosh kasalliklarida tavsiya etiladi.

O'simlikning quruq ekstrakti tabletka ko'rinishida (0,25g) ishlab chiqariladi. Kuniga 3 marta yarim stakan iliq suv bilan 2-3 tabletkadan ichiladi. Bundan tashqari "Marelin" kompleks tabletkasi tarkibiga ham kiradi.

Sistenal kompleksi preparati tarkibida ro'yan ildizidan tayyorlangan nastoyka va boshqa moddalar bo'ladi. Preparat 3-4 tomchidan qandga tomizib ovqatdan 30 daqiqa oldin qabul qilinadi.

Ro'yan siydik yo'lidagi tosh hosil bo'lish kasalligida ishlatiladigan yig'malar tarkibiga kiradi.

Tuyatovondoshlar oilasi - Zygophyllaceae

Yerbag'ir temirtikan - *Tribulus terrestris* L.

Temirtikan o'ti tarkibida steroidlar saponinlar, alkaloidlar, flavonoidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Temirtikanning asosiy ta'sir etuvchi birikmasi steroid saponinlar (diossin, diosgenin, gitogenin va boshqalar) hisoblanadi.

O'simlikning yer ustki qismidan steroid saponinlar yig'indisi olinadi. Ular qondagi xalesterin miqdorini kamaytiradi, qon tomirlarini qisman kengaytiradi va qon bosimini tushiradi, qon ivishini sekinlashtiradi.

Uning preparati – tribusponin tarkibida o'simlik o'tidan olingan steroid saponinlar yig'indisi bor va tabletka holida (0,1 g) ishlab chiqariladi. Preparat, asosan, oyoq qon tomirlari aterosklerozida boshqa dori vositalari bilan birga ishlatiladi.

Torondoshlar oilasi - Polygonaceae

Dorivor otquloq - *Rumex confertus* Willd.

Otquloq ildizi tarkibida 4% gacha antrasen unumlari, 4,6-17% oshlovchi moddalar, S va K₁ vitaminlari bor. Bulardan tashqari, flavonoidlar, kislotalar, qandlar, kraxmal ham bo'ladi.

Ildizining asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddasi antrasen unumlari, oshlovchi moddalar va K₁ vitamini hisoblanadi.

Otquloq ildizi va mevasi preparatlari (damlama, qaynatma) kichik dozada ichak shilliq pardasini burishtiradi, katta dozada esa ichni suradi. Burishtiruvchi ta'sir tarkibidagi oshlovchi moddalarga bog'liq bo'lsa, ichni surishi esa antraglikozidlar hisobigadir. Ichni surish ta'siri ichilgandan 10-12 soatdan keyin bilinadi. Shuning uchun ham preparatni kechqurun yotishdan oldin qabul etish tavsiya etiladi.

O'simlikning Galen preparatlari (damlama, qaynatma, ekstraktlari) kolitlarda, enterokolitlarda, bavoilda beriladi hamda og'izni chayish uchun stomatit, gingivit, anginada tavsiya etiladi.

Otquloq ildizidan qaynatma tayyorlash uchun 5 g maydalangan ildiz olinib, 1 stakan qaynab turgan suvga solinadi va 30 daqiqa davomida qaynab turgan suvda ushlab turiladi. Sovitilgach, dokadan suziladi va ovqatdan 30 daqiqa oldin kuniga 2-3 marta chorak stakandan qabul qilinadi.

Tarondoshlar oilasi - Polygonaceae

Qushtaron - Polygonium aviculare l.

Qushtaron yer ustki qismi tarkibida 120-887 mg % S va K₁ vitaminlari, flavonoidlar (avikulyarin, kversitrin va giperozid), karotin, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

Qushtaronning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari uning tarkibidagi vitaminlar va flavonoidlar hisoblanadi.

Tibbiyotda qushtaronning yer ustki qismidan tayyorlangan preparatlari qo'llaniladi. Chunki uning tarkibida bir qator biologik faol moddalar (askorbin kislota, K₁ vitamini, karotin, oshlovchi) bor.

Xalq tabobatida o'simlikdan tayyorlangan damlama siydik hvaydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi, burishtiruvchi dori sifatida ich ketishida ishlatiladi.

O'simlikning farmakologik o'rganishda uning har tomonlama ta'sirga ega ekanligi aniqlangan. Chunonchi siydik haydovchi, antimikrob, yallig'lanishga qarshi va boshqa xossalari bilan birga qon ivishini tezlashtirishi, qon tomir devorining o'tkazuvchanligini kamaytirishi ham aniqlangan. O'simlikning bunday qon va qon tomirga ta'siri uning tarkibidagi K₁, S vitaminlariga bog'liq.

Shungi asosan, o'simlik preparatlari (damlama) turli kasalliklarda (buyrak va siydik yo'li kasalliklari, oshqozon-ichak va boshqa kasalliklar), shu jumladan, bachadondan, ichakdan va bivosilda qon ketishida uni to'xtatish maqsadida qo'llanilishi tavsiya etilgan.

Damlama (1:10) kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin yarim yoki chorak stakandan ichiladi.

Qushtoron yer ustki qismi qon to'xtatuvchi siydik haydovchi yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Sho'radoshlar oilasi - Chenopodiaceae

Olabuta - *Atriplex tatarica* L.

Olabutaning yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar, efir moyi, vitamin S, karotin va fitonsidlar bor.

Xalq tibbiyotida o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama me'da, bosh og'riq (migren), nafas qisishi (astma) va shamollash kasalliklarida hamda yel haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) oilasi - Lamiaceae (Labiatae)

Arslonquyruq (*Leonurus l.*) - (*Leonurus l.*)

Mahsulot tarkibida flavonoidlar, alkaloidlar, iridoidlar, saoninlar, S vitamini, karotin, kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Arslonquyruq turlarining asosiy ta'sir etuvchi birikmalari flavonoidlar, iridoidlar va boshqa moddalar hisoblanadi.

Arslonquyruqning yer ustki qismi turli biologik faol moddalarni (glikozidlar, alkaloidlar, efir moyi, flavonoidlar, qandlar va boshqalar) saqlaydi. O'simlik yer ustki qismidan tayyorlangan preparatlar (damlama, nastoyka, suyuq ekstrakti) valerianaga o'xshash (undan kuchliroq) tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga o'simlik preparatlari qon bosimini tushiradi, yurak faoliyatini (tonusini) yaxshilaydi, koronar qon tomirlarini qisman kengaytiradi. Shuni hisobga olgan holda, arslonquyruq preparatalri (damlama, nastoyka) yurak – qon tomir kasalliklarini (yurak nevrozi, stenokardiya, gipertoniya) davolash uchun buyuriladi. Bundan tashqari, asab kasalliklarida (asabiylashish, psixoasteniya, nevrasteniya va boshqalar) ham beriladi.

Arslonquyruqning damlamasi (15 g o'ti 200 ml qaynab turgan suvga solinadi) chorak stakandan ovqatdan 1 soat oldin kuniga 2 marta ichiladi.

Arslonquyruq nastoykasi (70% spirtida 1:5 nisbatda tayyorlanadi) 30-50 tomchidan tomchidan kuniga 3-4 marta ichiladi. Flakonda (25 ml li) dorixonalariga chiqariladi.

Yalpiz - *Mentha piperita* L

Yalpiz turlari tarkibida efir moyi, flavonoidlar va boshqa birikmalar bor.

Abu Ali ibn Sino yalpiz turlarini ovqat hazm qilishni yaxshilovchi, gijja haydovchi, qon to'xtatuvchi va qusishga qarshi ta'sir etuvchi dori sifatida ishlatgan

Xalq tibbiyotida yalpiz turlaridan tayyorlangan qaynatma yoki quritilgan bargdan olingan shira istisqo, qo'tir, bod, me'da, sariq, ko'krak og'riq, shirincha, yo'talni va boshqa kasalliklarni davolashda hamda chanqov bosuvchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llanadi.

Qoqio'tdoshlar oilasi - Asteraceae

Achchiq shuvoq - *Artemisia absinthium* L.

Ermon shuvoq tarkibida 0,5-2% efir moyi, achchiq glikozidlar, xamazulen, kislotalar, S vitamini, karotin, flavonoidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

Mahsulotning asosiy ta'sir qiluvchi birikmalari efir moyi, achchiq glikozidlar va xamaulenlar hisoblanadi.

Ermon qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarda qo'llanilib kelingan.

Ibn Sino ermon shuvoq bilan sariq, ko'z yallig'lanishi, istisqo va boshqa xastaliklarni davolagan.

Xalq tabobatida o'simlikdan tayyorlangan damlama ich ketishida, ovqat xazm bo'lishining buzilishida va boshqa kasalliklarda ishlatiladi.

Tibbiyotda achchiq shuvoq dorivor preparatlar (damlama, qaynatma, ekstrakt), ishtaha ochuvchi, ovqatning hazm bo'lishini yaxshilovchi, oshqozon shirasining chiqishini oshiruvchi dori sifatida, bundan tashqari, jigar, o't pufagi va boshqa kasalliklarda beriladi.

Uning damlamasi (shuvoqning 1 choy qoshiq yer ustki qismi 2 stakan qaynab turgan suvga solinadi va damlanadi, dokada suziladi) ovqatdan 30 daqiqa oldin kuniga 3 mahal chorak yoki yarim stakandan ichiladi. Nastoykasi 25 ml da flakonda chiqariladi, 10-20 tomchidan ichiladi. O'simlik o't haydovchi va ishtaha ochuvchi yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Dorivor qoqio't - *Taraxacum officinale* web.

Qoqio't ildizi tarkibida achchiq glikozidlar (taraksasin va taraksaserin), triterpen birikmalar, 24 % gacha insulin va boshqa moddalar bo'ladi.

Ildizining asosiy ta'sir ko'rsatuvchi biologik faol birikmalari achchiq glikozidlar hisoblanadi.

Qoqio't qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarga davo bo'lib kelgan. Ibn Sino qoqio'tni jigar va istisqo kasalligiga qarshi qo'llagan.

Xalq tabobatida qoqi ildizi va yer ustki qismidan tayyorlangan damlama jigar va o't pufagi kasalligida o't haydovchi hamda ishtahani ochuvchi, qonni tozalovchi, siydik haydovchi va surgu dori sifatida qo'llaniladi. Damlama yana

anasid (oshqozonda xlorid kislotaning bo'lmasligi bilan boradigan) gastrit, podagra va teri kasalliklarida ishlatiladi. Ba'zan damlamala tinchlantiruvchi vosita sifatida ham foydalaniladi. Quritilmagan (ho'l) qoqi bargi shirasi kamqonlikka, quvvatsizlikka va ko'krak og'rig'iga davo bo'ladi.

Tibbiyotda qoqio't preparatlarining o'zi yoki boshqa o't haydovchi dorilar bilan birga jigar kasalliklarida (xolesistit, gepatoxolesistit) hamda o't yo'llari va jigar tizimida hamda ich qotishi asoratlari bilan boradigan anasid gastritda qo'llaniladi.

Tibbiyotda maydalangan qoqio't ildizining 1 choy qoshig'i 1 stakan qaynagan suvga solib damlanadi (iliq holida chorak stakandan ovqatdan 15 daqiqa oldin kuniga 2-3 marta ichiladi) va pilyula (xab dori) shaklida, quyuq ekstrakti ishtahani ochish, ovqat hazm qilishni yaxshilash va o't haydovchi dori sifatida, jigar, o't pufagi kasalliklarida qo'llaniladi.

Qoqio't ildizi o't haydovchi, ishtahani ochuvchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Uch bo'lakli qariqiz - *Bidens tripartita* L.

Qariqizning yer ustki qismi – o'ti tarkibida 28,3 – 61,26 mg % karotin, 748-953,3 mg % S vitamini, efir moyi, flavonoidlar (lyuteolin, sinarozid va boshqalar), kumarinlar, shilliq, achchiq, bo'yoq, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

Qoraqiz (ittikanak) yer ustki qismining asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol birikmalari uning tarkibidagi vitaminlar (ayniqsa, karotin), flavonoidlar va shilliq moddalar kompleksi hisoblanadi.

Tibbiyotda o'simlikning yer ustki qismidan foydalaniladi.

Xalq tabobatida o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama ba'zi teri kasalliklari (gush-ekzema, qo'tir) ni davolash, bolalar badaniga toshma toshganda ularni cho'miltirish uchun hamda bolalarda bo'ladigan diatez kasalliklarida qo'llaniladigan shifobaxsh vannalar tayyorlashda qo'llanadi.

Tibbiyotda qoraqiz o'simligidan ba'zi teri kasalliklarida (gush va boshqalar) hamda bolalarning diatez kasalliklarida qo'llanadigan shifobaxsh vannalar tayyorlanadi. Bundan tashqari, o'simlikning o'tidan tayyorlangan damlama (10 g o'ti 200 ml qaynab turgan suvga solib damlanadi) yallig'lanish va allergiyaga qarshi chora sifatida 1 osh qoshiqdan kuniga 2-3 marta ichiladi. Dorixonalarda o'ti 100 g dan va briketi 75 g qog'oz xaltachalarda sotiladi.

Qoraqiz o'simligining yer ustki qismi shirincha kasalligida qo'llanadigan choy-yig'malar tarkibiga kiradi.

Sachratqi - *Cichorium inthybus* L.

O'simlik ildizi tarkibida inulin, intibin achchiq glikozidi, vitamin V₁, qandlar, bargida inulin, vitamin S, organik kislotalar, gulida sikoriin glikozidi, vitamin S va boshqa moddalar bor. Sachratqi o'simligi sui shiraga boy. Sut shira tarkibida achchiq moddalar, taraksasterol, kauchuk va boshqa birikmalar bo'ladi.

Xalq tibbiyotida sachratqi keng ravishda qo'llaniladigan dorivor o'simliklardan biridir. Qurilmagan ildiz dizenteriya kasalligini va yallig'lanish prosesslarini davolashda, ildizdan tayyorlangan qaynatma esa ishtaxa ochi shva ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun ishlatiladi. Sachratqining yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmada oftob urgan bolalar cho'miltiriladi. Sachratqi hamda moychechak gullari aralashmasidan tayyorlangan qaynatma jigar, taloq, buyrak va me'da kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Mevasi esa isitma ko'tarilganda haroratni pasaytiradi. Sachratqi kulini (ba'zan ko'ztikan kuli bilan) qaymoqqa qorib, gush, suvchechak, turli yaralar va boshqa teri kasalliklariga surtiladi.

Qo'ypechakdoshlar oilasi - *Convolvulaceae*

Qo'ypechak - *Convolvulus arvensis* L.

O'simlik tarkibida flavonoidlar, kofe kislota, karotin, vitamin S, smoralar va alkaloidlar bor.

Abu Ali ibn Sino qo'ypechak o'simligini astma, o'pka, jigar, taloq, ko'krak og'rig'i kasalliklarni davolashda hamda o't haydovchi dori sifatida qo'llagan.

Xalq tibbiyotida quritilmagan barg shirasini mol yog'i bilan aralashtirib, o'pka va quloq kasalliklariga davo qilinadi. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma bilan yaralar, tananing urilib, ko'kargan yeri yuviladi. Bulardan tashqari, qaynatma temiratki va qo'tirga ham davo qilinadi. Barg poroshogi yaralar, jarohatlar ustiga sepiladi.

Xalq tibbiyotida ildizpoya yoki o'simligining yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to'xtatuvchi (ichak va me'dadan, to'qqandan so'ngi qon ketishda) dori sifatida hamda og'iz og'riganda og'izni chayishda, me'da-ichak kasalliklarida (ich ketganda) ishlatiladi.

2. TADQIQOT SHAROITLARI, OBYEKTI VA USLUBLARI

Tadqiqot sharoitlari

Samarqand Zarafshon vodiysining kengaygan qismida joylashgan. Samarqand bog'ining eng keng yeri 70-80 km uzunligi 220 km. Okean sathidan balandligi 300-305 m bo'lib, tog'lar tomon balandlashib, shimolda Nurota-Oqtog'ga, janubda Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'larida tutashib ketadi. G'arbga torayib Xazar yo'lagi orqali Buxoro vohasida ajralib turadi. Xazar yo'lagining shimolida Qiziltepa-Avtobach, janubida Azkamar balandligi joylashgan.

Samarqand botiqi g'arbga qarab pasaysa markaziy qismi (Zarafshon daryos o'zanidan) har ikki tomonga balandlashadi. Chunki bu qismida Zarafshon daryosining 4-5 ta ko'hna qayrilari joylashgan. Bu qayrilarning liyoss yotqiziqlari qalin bo'lgan yer larida ko'plab jarlar vujudga kelgan.

Zarafshon vodiysining shimolida Oqtog' joylashgan. Bu tog'ning shimolida esa Nurota – Qo'ytosh botig'i o'rnamshgan. Bu botiqning o'rtacha balandligi 500-600m bo'lib, uning shimolida Nurota tizmasi joylashgan. Nurota tizmasining o'rtacha balandligi 1500 m. Eng baland Hayotboshi cho'qqisi 2169 m Nurota tizmasi sharqda Sangzor daryo vodiysi orqali Morguzor tog'idan ajralib turadi. Nurota – Qo'ytosh botig'ining janubida G'o'bdin, Qaroqchi, Oqtog', Baxmal tog'lari joylashgan.

Samarqand viloyati subtropik kengliklarda joylashgan bo'lib quyosh uzoq vaqt isitib turadi. Shu sababli quyoshning yalpi radiyasiyasi bir kv. sm. yuzaga bir yilda 150 kaloriyani tashkil qiladi. Buning ustiga bulutsiz kunlar ko'p bo'lib, quyosh yiliga 300 soatgacha yoritib turadi. Shu sababli yozda juda issiq va quruq keladi. Qish esa nisbatan iliq.

Samarqand shimoliy sharqiy qismi tog'lar bilan o'ralganligi sababli shimoldan, shimoliy – sharqdan kirib keladigan sovuq havo massalari nisbatan kam ta'sir etadi. Aksincha vodiyning shimoliy – g'arbiy qismi ochiq sovuq

shamollar bemalol yetib keladi. Shu sababli vodiyni g'arbiy qismida sharqiga qaraganda qish sovuq bo'ladi. Harorat $-0,5^{\circ}$ S bo'ladi. Yozda iyulning o'rtacha xarorati 26° S. O'pkada yog'inlar xudud bo'yicha koteks taqsimlangan. G'arbida yiliga 114-177 mm, sharqida 300-350 mm, atrofidagi tog'larda Omonqo'tonda 881 mm gacha yog'in tushadi. Eng ko'p yog'in bahorda, eng kami yozda yog'adi. Qishda yog'in ko'proq qor tarzida yog'adi. Lekin qor qoplamining qalinligi o'lkada birday emas. O'lkaning asosiy suv manbai Zarafshon daryosidir. U Zarafshon muzligidan boshlanadi. Daryoning o'rta va quyi oqimi O'zbekistonga qaraydi. Bu qismda Zarafshon daryosi keng o'zanda sekin oqadi va Samarqand shahri yaqinida ikki tarmog'i Qoradaryo Xatirchi yaqinida qo'shilib, Miyonqala orolida hosil qiladi.

Zarafshon muz va qorlarining erishidan to'yinadi. Shu sababli uning to'lin suvli davri qishga to'g'ri keladi. Zarafshon daryosi suvning bir qismi Eski Tuyatortar arig'i orqali Sangzar vodiysiga, Eskianhor arig'i orqali esa Qashqadaryo viloyatiga oqizilgan, Zarafshon daryosiga o'lka xududida xech qanday irmoq qo'shilmaydi, faqat atrofidagi tog'lardan boshlanuvchi 120 ga yaqin soy bor. Samarqand viloyatida yer osti suvlari ancha ko'p. Yuza grunt (sizot) suvlar sho'r, ichish uchun yaroqsiz. 100-130 m chuqurlikda joylashgan antropogen yotqiziqlaridagi suvlar esa chuchukdir. O'lkada yana kata chuqurlikdan chiquvchi artezian suvlar, jumladan minerallashtgan issiq suvlar ham bor.

O'lkaning sug'oriladigan qismida chirindisi 1-2 foiz bo'lgan o'tloq voha tuproqlari tarqalgan. Samarqand viloyatining tuprog'i bo'z tuproq bo'z tuproq. Bu tuproq xili birmuncha xosildor bo'lib tarkibidagi chirindi miqdori 1,5 – 3% ga yetadi yoki 2,5 – 3,5% ga yetadi.

Samarqand viloyatining o'simliklar ham g'arbdan sharqqa tekislikdan tog'ga tomon o'zgara boradi. Cho'l mintaqasida issiq quruq jazirama bo'lib uzoq davom etadi. Binobarin shunday sharoitga moslashgan o'simliklar o'sadi. Cho'llarda efemer efemeroidlar, shuvoq kabi o'simliklar ko'p o'sadi. Qumli yerlarda oq va qora saksavul ba'zan yantoq tarqalgan. Sho'rxok joylarda sarsazan yetmak o'sadi.

Adir mintaqasida 400-1200 metrgacha bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi. Adirning asosiy tabiiy o'simliklari efemeroid va efemerlardir. Ayniqsa rang, qo'ng'irbosh, chuchmomo, boychechak, lolaqizg'aldoq va loladan iborat.

2.2. Tadqiqot obyekti

Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklar: oddiy achchiqmiya (*Goebelia alopecuroides* (L.) Bge), ikki uyli gazanda (*Urtica dioica* L), Dorivor gulxayri (*Althea afficinalis* L), Oddiy (anissimon) arpabodiyon (*Pimpinella anisum* L), katta zupturup (*Plantago major* L), oddiy bangidevona (*Datura stramonium*), ituzum (*Solanum nigrum* L), qora mingdevona (*Hyoscyamus niger* L), sarept xantali (*Brassica Juncea* (L.) Czern), oddiy jag'-jag' (*Carsella bursa-pastoris* Medic), Tikanli kovul (*Capparis spinosa* L), qizg'aldoq (*Roemeria refracta* DC), Beshbarg (*Potentilla repens* L), bo'yoqdor ro'yan (*Rubia tinctorum* L), yerbag'ir temirtikan (*Tribulus terrestris* L), dorivor otquloq (*Rumex confertus* Willd), qushtoron (*Polygonum aviculare* L), olabuta (*Atriplex tatarica* L), arslonquyruq (*Leonurus leonurus* L), yalpiz (*Mentha piperita* L), sachratqi (*Cichorium inthybus* L), achchiq shuvoq (*Artemisia absinthium* L), uch bo'lakli qoraqiz (*Bidens tripartita* L), dorivor qoqio't (*Taraxacum officinale* wyeb), qo'ypechak (*Convolvulus arvensis* L).

2.3. Tadqiqot uslublari

O'simliklarning turlari quyidagi kitoblardan aniqlandi; «Flora Uzbekistana» [7] , Opredelitel rasteniy Sredney Azii [10], Rastitelnost Sredney Azii i Kazaxstana [8], Flora i rastitelnost basseyna reki Zarafshan [4,5], ayrim o'zgarishlar S.K. Cherepanov bo'yicha aniqlandi [19].

Xayotiy formalarning analizini K. Raunkiye va I.G. Serebryakov sistemasi bo'yicha qilindi [3].

3. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarni oila, turkum va turlar bo'yicha taqsimlanishi

Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarning 17 oila 25 turkum va 25 turga kirishini aniqladik. (3.1 jadval). Jadvalda ko'rikganidek eng ko'p tur Qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasida (4 tur, 16%), keyingi o'rinda Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasida (3 tur), uchinchi o'rinda Karamdoshlar (Brassicaceae) va Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilalarida (2 turdan). Hamma qolgan turkumlarda 1turdan mavjud.

Dorivor o'simliklar hayotiy shakli bo'yicha o'tlar bo'lib, buta, chala buta va daraxt shakllari uchramaydi. Biz olib borgan izlanishlardan ma'lum bo'ldiki oila vakillarining 25 turdan iborat bo'lib, hayotiy shakliga ko'ra bir yillik o'tlar (9 tur), ikki yillik o'tlar (1 tur), ko'p yillik o'tlar (15 tur) o'simliklar ekanligi o'rganildi. (3.2. jadval)

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Samarqand viloyati Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarning 25 turi aniqlandi. Shulardan Asteraceae oilasiga 16%, Solanaceae oilasida 12%, Brassicaceae, Lamiaceae oilalarida 8% boshqa oilalarida 4% o'simliklarni tashkil etadi. Dorivor o'simliklar uchraydigan turlardan har jihatdan foydalanilsa bo'ladi, buning uchun ulardan oqilona foydalanish, antropogen omillarning ta'sirini hisobga olish, chorva mollarini boqishni qisqartirish orqali bu oila vakillarining hozirgi holatini saqlab qolish mumkin.

3.1. jadval

Dorivor o'simliklarni oila, turkum va turlarga taqsimlanishi

№	O'simliklar oilalarini nomi		Soni			
	O'zbekcha	Lotincha	Turkum	%	Tur	%
1	Burchoqdoshlar	Fabaceae	1	4	1	4

2	Gazandadoshlar	Urticaceae	1	4	1	4
3	Gulxayridoshlar	Malvaceae	1	4	1	4
4	Ziradoshlar	Apiaceae	1	4	1	4
5	Zupturumdoshlar	Plantaginaceae	1	4	1	4
6	Ituzumdoshlar	Solanaceae	3	12	3	12
7	Karamdoshlar	Brassicaceae	2	8	2	8
8	Kavardoshlar	Capparidaceae	1	4	1	4
9	Ko'knordoshlar	Papaveraceae	1	4	1	4
10	Ra'nodoshlar	Rosaceae	1	4	1	4
11	Ro'yandoshlar	Rubiaceae	1	4	1	4
12	Tuyatovondoshlar	Zygophyllaceae	1	4	1	4
13	Torondoshlar	Polygonaceae	2	8	2	8
14	Sho'radoshlar	Chenopodiaceae	1	4	1	4
15	Yalpizdoshlar	Lamiaceae	2	8	2	8
16	Qoqio'tdoshlar	Asteraceae	4	16	4	16

17	Qo'ypechakdoshlar	Convolvulaceae	1	8	1	8
	jami	17	25		25	

Dorivor o'simliklarning xayotiy formalarini aniqladik. Bir yillik o'tchil o'simliklarga 9 tur kiradi, 2 yillikga 1 tur, ko'p yillikga 15 tur kirishini aniqladik (3, 2 jadval).

3.2. jadval

Dorivor o'simliklarni xayotiy shakllari

№	O'simliklar nomi		Xayotiy shakllari					
	O'zbekcha – lotincha Turkum nomi	O'zbekcha – lotincha Turning nomi	Daraxt	Buta	Chala buta	O'tlar		
						1 yillik	2 yillik	Ko'p yillik
1	Burchoqdoshlar Fabaceae	1. Oddiy achchiqmiya- Goebelia alopecuroides (L.) Bge						+
2	Gazandadoshlar Urticaceae	2. Ikki uyli gazanda - Urtica dioica L.						+
3	Gulxayridoshlar Malvaceae	3. Dorivor gulxayri- Althea afficinalis L.						+
4	Ziradoshlar Apiaceae	4. Oddiy (anissimon) -arpabodiyon Pimpinella anisum L.				+		
5	Zupturumdoshlar Plantaginaceae	5. Katta zupturup- Plantago major L.						+
6	Ituzumdoshlar Solanaceae	6. Oddiy bangidevona -				+		

		Datura stramonium						
		7. Ituzum - Solanum nigrum L.				+		
		8. Qora mingdevona- hyoscyamus niger L					+	
7	Karamdoshlar Brassicaceae	9. Sarept xantali- Brassica Juncea (L.) Czern.				+		
		10. Oddiy jag'-jag'- Carsella bursa- pastoris Medic.						+
8	Kavardoshlar Capparidaceae	11. Tikanli kovul - Capparis spinosa L.						+
9	Ko'knordoshlar Papaveraceae	12. Qizg'aldoq- Roemeria refracta DC.				+		
10	Ra'nodoshlar Rosaceae	13. Beshbarg- Potentilla repens L.						+
11	Ro'yandoshlar Rubiaceae	14. Bo'yoqdor ro'yan- Rubia tinctorum L.						+
12	Tuyatovondoshlar Zygophyllaceae	15. Yerbag'ir temirtikan - Tribulus terrestris L.				+		
13	Torondoshlar Polygonaceae	16. Dorivor otquloq- Rumex confertus Willd.						+
		17. Qushtoron - Polygonum aviculare l.				+		

14	Sho'radoshlar Chenopodiaceae	18. Olabuta- Atriplex tatarica L.				+		
15	Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) Lamiaceae (Labiatae)	19. Arslonquyruq- Leonurus leonurus L.						+
		20. Yalpiz- Mentha piperita L.						+
16	Qoqio'tdoshlar Asteraceae	21. Sachratqi Cichorium inthybus L.						+
		22. Achchiq shuvoq Artemisia absinthium L.						+
		23. Uch bo'lakli qoraqiz - Bidens tripartita L.				+		
		24. Dorivor qoqio't- Taraxacum officinale wieb.						+
17	Qo'ypechakdoshlar Convolvulaceae	25. Qo'ypechak- Convolvulus arvensis L.						+
Jami 17		25				9	1	15

3.2. Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarning botanik tavsifi

Burchoqdoshlar oilasi

Fabaceae

Achchiqmiya turkumi

Goyebelia

Oddiy achchiqmiya

Goebelia alopecuroides (L.) Bge

Achchiqmiya turlari Toshkent, Sirdaryo, Jizzaz, Samarqand, Farg'ona va Buxoro tumanlarining cho'l va yarimcho'lida, qirlarda, tog' etaklarida, tepaliklarda, begona o't sifatida bug'doyzorlarda va boshqa yerlarda o'sadi.

Achchiqmiya turlari ko'p yillik, oqish-yashil rangli, bo'yi 30-70 sm gacha yetadtgan o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, asos qismidan boshlab shoxlangan. Bargchalari ellipssimon. Gullari och – sarg'ish rangli, shingilga to'plangan. Mevasi - qo'ng'ir rangli, to'g'nag'ichsimon, pishganda ochilmaydigan yo'g'on dukkak.

April-may oylarida gullaydi, mevasi iyun-iyulda pishadi.

Gazandadoshlar oilasi

Urticaceae

Gazanda turkumi

Urtica l.

Ikki uyli gazanda

Urtica dioica L.

Ikki uyli gazanda ko'p yillik, ikki uyli, achituvchi tuklar bilan qoplangan o't o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, to'rt qirrali, oddiy yoki shoxlanuvchi,

tuksiz yoki siyrak tukli, balandligi 60-120 sm. Bagrlari oddiy, tuxumsimon, arrasimon yirik tishli, bandli, ikala tomoni tukli, qarama-qarshi joylashgan. To'pguli uzun, soxta boshosqimon. Guli bir jinsli, gulqo'rg'oni oddiy, changchi guli 4 bo'lakka qirqilgan, urug'chi guli 2 ta ichki va 2 ta tashqi bo'laklardan tashkil topgan. Mevasi – tuxumsimon yoki ellipssimon yong'oqcha (3.1-rasm).

May-sentyabr oylarida gullab, meva beradi.

Gulxayridoshlar oilasi

Malvaceae

Gulxayri turukumi

Althea.

Dorivor gulxayri

Althea afficinalis L.

Dorivor gulxayri ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi, asosan, yakka, tik o'suvchi, balandligi 70-150 sm oralig'ida, yulduzchasimon, tuklar bilan qoplangan. Kam shox, bargi oddiy, tuxumsimon, butun yoki 3-5 bo'lakli (ayniqsa, arman gulxayrisida), qalin tukli bo'lib, bandi ketma – ket o'rnashgan. Gullari binafsha, och binafsha, ba'zan oqish rangli, barg qo'ltig'ida to'p – to'p bo'lib o'rnashgan. Gul kosachasidan 1,5 – 2,5 marta uzun. Mevasi yumoloq, ko'p urug'li meva (3.2-rasm).

Iyun – avgustda gullab, iyun – sentyabr oylarida mevasi pishib yetiladi.

Ziradoshlar oilasi


Apiaceae

Arpabodiyon turkumi

Pimpinella l.

Oddiy (anissimon) arpabodiyon

Pimpinella anisum L.



3.1. Rasm Ikki uyli gazanda - *Urtica dioica*



3.2. Rasm Dorivor gulhayri - *Althea officinalis*

Oddiy (anissimon) arpabodiyon bir yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, balandligi 30-60 (70) sm, ko'p qirrali, yuqori qismi shoxlangan. Ildiz bo'g'izidagi va poyasining pastki qismidagi barglari butun, uzun bandli, yumaloq, buyraksimon, tuxumsimon yoki bo'lakli, yirik tishsimon qirrali, poyaning o'rta qismidagilari uzun bandli, uch bo'lakli, arrasimon qirrali, yuqori qismidagilari qinli, 2-5 bo'lakka patsimon qirqilgan yoki nashtarsimon, poyada ketma – ket o'rnashgan. Gullari mayda, ko'rimsiz, oq rangli, murakkab soyabonda o'rnashgan. Soyaboni 7-15 nurli. Mevasi – tuxumsimon yoki teskari noksimon qo'shaloq pista.

May – iyun oylarida gullab, mevasi iyun – iyulda pishib yetiladi.

Zupturumdoshlar oilasi

Plantaginaceae

Zupturum turkumi

Plantago l.

Katta zupturup

Plantago major L.

Katta zupturup ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi shakllanmagan. Ildiz bo'g'izida joylashgan to'pbarglari uzun, ingichka qanotchali, bandli, yaprog'i keng tuxumsimon, tekis qirrali. Gul o'qi bitta yoki bir nechta, tukli, uzunligi 10-40 sm. to'pguli boshhoqsimon, uzunligi 4-25 sm. guli mayda, ko'rimsiz, gul bo'laklari 4 tadan. Gultoji och qo'ng'ir rangli ko'sak. (3.3 rasm)

May-sentyabr oylarida gullab, meva beradi.

Ituzumdoshlar oilasi

Solanaceae

Bangidevona turkumi

Datura L

Oddiy bangidevona

Datura stramonium



3.3. Rasm Katta zupturum - Plantago major L.

Oddiy bangidevona bo'yi 120sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, ayrisimon shoxlangan. Barglari oddiy, tuxumsimon, chuqur o'yilgan, uzun bandli, ketma – ket o'rnashgan. Gullari yirik, oq, yakka – yakka o'rnashgan. Mevasi tuxumsimon, ko'r urug'li, qalin tikanlar bilan qoplangan, 4 chanoq bilan ochiladigan ko'sak. (3.4-rasm)

Ituzum turkumi

Solanum

Ituzum

Solanum nigrum L.

Ituzum bir yillik, bo'yi 25-75 sm gacha yetadigan o't o'simlik. Bargi cho'ziq tuxumsimon yoki tuxumsimon bo'lib, poyada bandi bilan kema-ket joylashgan. Gullari oq, 3-8 tadan birlashgan bo'lib, soyabonsimon yoki shingilsimon-qalqonsimon to'pgulni tashkil etgan. Mevasi – dumaloq sershira, qora rangli ho'l meva.

Iyun oyidan kuzgacha gullaydi. Mevasi iyul oyidan boshlab kech kuzgacha pishadi.

Mingdevona turkumi

Hyoscyamus L.

Qora mingdevona

Hyoscyamus niger L

Qora mingdevona ikki yillik o't o'simlik. Birinchi yili ildiz bo'g'izi (ildizoldi) to'pbarglari hosil bo'ladi. Ikkinchi yili poya o'sib chiqadi. Poyasi tik o'sadi, sershox balandligi 150sm ga yetadi, tukli. Eng pastki barglari cho'ziq –

tuxumsimon, pastsimon bo'lingan, bandli, poyadagilari bandsiz, tuxumsimondan nashtarsimongacha, o'yilgan yoki patsimon bo'lingan.



3.4. Rasm. Oddiy bangidevona - *Datura stramonium*

Kosachasi voronkasimon, 5 bo'lakli, xira sariq rangli, kosachasidan 2 marta uzun. Mevasi ko'p urug'li, qalpoqchasi orqali ochiladigan ko'zachasimon ko'sakcha. (3.5-rasm)

May oyidan sentyabrgacha gullab, meva beradi (6 rasm).

Karamdoshlar oilasi

Brassicaceae

Xaltal turkumi

Brassica l.

Sarept xantali

Brassica Juncea (L.) Czern.

Sarept xantali bir yillik o't o'simlik. Poyasi tuksiz, tik o'suvchi, shoxli, balandligi 40-100 sm. Pastki barglari bandli, patsimon qirqilgan, eng yuqorigisi deyarli bandsiz, poyada ketma – ket o'rnashgan, to'pguli shingilsimon. Kosacha va tojbarglari 4 tadan, gultoji sariq. Mevasi 2-5 sm uzunlikda, chiziqsimon, ingichka qo'zoq. Urug'i mayda, yumaloq.

Jag'-jag' turkumi

Carsella medic.

Oddiy jag'-jag'

Carsella bursa-pastoris Medic.

Oddiy jag'-jag' ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, oddiy yoki shoxlanuvchi, tukli, balandligi 10-30 sm. Ildizoldi barglari lirasimon, patsimon bo'lingan yoki patsimon qirqilgan, qisqa bardli, poyadagilari cho'ziq, bandsiz, patsimon bo'lingan, yuqoridagilari butun, ketma-ket joylashgan. Gullari poyaning yuqori qismida uzun bandlarda o'rnashib, shingilsimon to'pgul hosil qiladi. Gultoji va kosachasi 4 bo'lakli. Gullari



3.5. Rasm Qora mingdevona - *Hyoscyamus niger* L

oq rangli. Mevasi teskari yuraksimon-uchburchak, tuksiz qo'zoqchadan iborat (3.6-rasm).

Mart-may oylarida gullab, aprel-iyunda mevasi yetiladi.

Kavardoshlar oilasi

Capparidaceae

Kovul turkumi

Capparis l.

Tikanli kovul

Capparis spinosa L.

Tikanli kovul ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi ko'p, sershox, tikanli, yerda yotib o'suvchi, uzunligi 2,5 m. barglari yumaloq, teskari tuxumsimon yoki ellipssimon. Gullari barg qo'ltig'ida uzun bandlarda o'rnashgan. Gulqo'rg'on bo'laklari 4 tadan. Gultoji oq, to'kilishi oldidan och binafsha rangli. Mevasi teskari tuxumsimon yoki yumaloq-cho'ziq, ko'p urug'li ko'sak. (3.7 rasm)

May-iyunda gullab, mevasi iyul-avgustda pishib yetiladi.

Ko'knordoshlar oilasi

Papaveraceae


Qizg'aldoq turkumi

Roemeria

Qizg'aldoq

Roemeria refracta DC.

Qizg'aldoq bir yillik, bo'yi 8-50 sm gacha yetadigan o't o'simlik. Poyasi asos qismidan boshlab tarmoqlanib shoxlangan, ba'zan shoxlanmagan bo'ladi, Ildizoldi va poyaning pastki qismidagi barglari bandli, ikki yoki uch marta chiziqsimon yoki tuxumsimon – chiziqsimon bo'laklarga patsimon ajralgan. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz, uch bo'lakka qirqirgan. Gulg'unchasi tuxumsimon yoki dumaloq shaklli, tuksiz yoki siyrak dag'al tuklar bilan qoplangan. Gullari yirik, yakka-yakka joylashgan va qizil ranga



3.6. Rasm Oddiy jag'-jag' - *Carsella bursa-pastoris* Medic



3.7. Rasm Tikanli kovul - *Capparis spinosa* L.

bo'yalgan. Gulbargining asos qismida qora dog'lar bo'ladi. Mevasi-ko'p urug'li, dukkak shaklli ko'sakcha.

Aprel-iyun oylarida gullaydi va mevasi pishadi.

O'simlik gullaganda gulbargi yig'iladi. Qizg'aldoq tarkibida alkaloidlar, organik kislotalar, vitamin S, qandlar, oshlovchi, bo'yoq va boshqa birikmalar bor.

Xalq tibbiyotida qizqaldoq gulbargi shirasini oftob urganda ichiladi va shuningdek og'rigan ko'z yuviladi. (3.8 rasm)

Ra'nodoshlar oilasi

Rosaceae

Beshbarg turkumi

Potentilla

Beshbarg


Potentilla repens L.

Beshbarg ko'p yillik, bo'yi 30-100 sm gacha yetadigan o't o'simlik. Poyasi ingichka, sudralib o'suvchi, tuksiz va siyrak tukli, bo'g'inlaridan ildizlar o'sib chiqadi. Ildizoldi barglari uzun bandli, panjasimon, ko'pincha 5 ta bargchalardan iborat bo'lib, ketma-ket joylashgan. Bargchalari teskari tuxumsimon yoki cho'ziq-teskari tuxumsimon, arrasimon – tishsimon qirrali. Gullari sariq ranga bo'yalgan, yakka-yakka holda uzun bandli bilan barg qo'ltig'iga o'rnashgan. Mevasi – yig'ma pista. (3.9 rasm)

May - avgust oylarida gullaydi va mevasi pishadi.

O'simlik tarkibida qandlar, organik kislotalar, vitamin S, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Abu Ali ibn Sino beshbarg ildizpoyasining qaynaimasini Tish og'riganda, quymich nervi shamollaganda, o'pka va me'da kasalliklarida ishlatgan. Quritilmagan ildizpoya shirasi bilan jigar kasalligini davolagan. O'simlik bargidan esa isitmalayotgan bemorlarni davolashda foydalangan.



3.8. Rasm. Qizg'aldoq - *Roemeria refracta* DC.



3.9. Rasm. Beshbarg - *Potentilla repens* L.

Xalq tibbiyotida ildizpoya yoki o'simligining yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to'xtatuvchi (ichak va me'dadan, to'qqandan so'ngi qon ketishda) dori sifatida hamda og'iz og'riganda og'izni chayishda, me'da-ichak kasalliklarida (ich ketganda) ishlatiladi.

Ro'yandoshlar oilasi

Rubiaceae

Ro'yan turkum

Rubiaceae

Rubia l.

Bo'yoqdor ro'yan

Rubia tinctorum L.

Bo'yoqdor ro'yan ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, bir nechta, ko'p qirrali, bo'g'imli, yuqori qismi shoxli, ilmoqli dag'al tukli, balandligi 30-100 sm, barglari 4-6 tadan doira hosil qilib o'rnanishgan, nashtarsimon, tuxumsimon, ilmoqli dag'al tukli. Gullari mayda, sarg'ish-yashil, barg qo'ltig'idagi yarim soyabonda o'rnanishgan. Kosachasi yaxshi rivojlanmagan, gultoji voronkasimon. Mevasi 1-2 urug'li, sharsimon, yetilganda qora rangga kiruvchi ho'l meva.

Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda mevasi pishib yetiladi.

Tuyatovondoshlar oilasi

Zygophyllaceae

Temirtikan turkumi

Tribulus l.

Yerbag'ir temirtikan

Tribulus terrestris L.

Yerbag'ir temirtikan bo'yi 10-60 sm, ba'zan undan ham uzun bo'lgan yer bag'irlab o'sadigan bir yillik o't o'simlik bir yillik o't o'simlik. Poyasi asosidan

(yerga yaqin qismidan) shoxlangan. Barglari murakkab – juft patsimon. Yaproqchalari 5-7 juft, nashtarsimon yoki cho'ziq. Gullari mayda, sariq, 5 bo'lakli, uzun bandli, barg qo'ltig'ida o'rnashgan. Mevasi 2-4 ta qattiq tikanli uchburchak – ponasimon yong'oqchadan iborat.

Aprél – may oylarida gullab, mevasi iyun – avgustda pishib yetiladi.

Torondoshlar oilasi

Polygonaceae

Otquloq turkumi

Rumex l.

Dorivor otquloq

Rumex confertus Willd.

Dorivor otquloq ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, bo'g'imli, yuqori qismi shoxlangan, balandligi 60-150 sm oralig'ida. Barglari oddiy, butun, ildizoldi va poyaning pastki qismidagisi uzun bandli, uchburchaksimon – tuxumsimon, yuqori qismidagilari tuxumsimon – nashtarsimon, qisqa bandli, ketma-ket o'rnashgan. To'p guli ro'vaksimon. Gullari mayda, ko'rimsiz, gulqo'rg'oni 6 bo'lakli. Mevasi tuxumsimon, uch qirrali, yong'oqcha. (3.10 rasm)

May-iyun oylarida gullab, iyulda meva beradi.

Qushtoron turkumi

Polygonium

Qushtoron

Polygonium aviculare l.

Qushtoron bir yillik o'simlik. Poyasi yerdan ko'tarilib yoki yotib o'sadi, bo'g'inli, balandligi 10-60 sm, shoxlanuvchi. Barglari har xil: keng ellipssimondan chiziqsimongacha. Gulqo'rg'oni oddiy, gullari 1-5 tadan barg



3.10. Rasm. Dorivor otquloq - *Rumex confertus* Willd

qo'ltiqlaridagi gulbandlarda o'rtnashgan. Mevasi tuxumsimon-uchburchak shaklli, qora rangli yong'oqcha.

May-oktyabr oylarida gullab, meva beradi.

Sho'radoshlar oilasi

Chenopodiaceae

Olabuta turkumi

Atriplex

Olabuta

Atriplex tatarica L.

Olabuta sarg'ish-yashil rangli, hidi yoqimli, bir yillik, bo'yi 15-60 sm gacha yetadigan o't o'simlik. Poyasi shoxlangan va bezli tuklar bilan qoplangan bo'ladi. Bargi cho'ziq, patsimon bo'lakli, poyada bandi bilan ketma-ket joylashgan. Gullari shingilsimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi-yong'oqcha.

Iyul - avgust oylarida gullaydi va mevasi pishadi.

Xushboy olabutaning yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar, efir moyi, vitamin S, karotin va fitonsidlar bor.

Xalq tibbiyotida o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama me'da, bosh og'riq (migren), nafas qisishi (astma) va shamollash kasalliklarida hamda yel haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) oilasi

Lamiaceae (Labiatae)

Arslonquyruq turkumi

Leonurus l.

Arslonquyruq

Leonurus leonurus l.

Arslonquyruq bo'yi 50 – 150 (200) sm bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Poyalari bir nechta, tik o'suvchi, shoxlangan, to'rt qirrali. Barglari oddiy, bandli, tuxumsimon yoki ellipssimon, past va o'rta qismlaridagilari besh, yuqoridagilari uch bo'lakka qirqilgan, poyada qarama – qarshi joylashgan. To'pguli boshqosimon. Gullari ikki labli, pushti va binafsha rangli. Mevasi 4 ta yong'oqchadan iborat. (3.11 rasm)

Iyun – iyul oylarida gullab, mevasi iyul – avgustda pishib yetiladi (7 rasm).

Yalpiz turkumi

Mentha L

Yalpiz

Mentha piperita L

Yalpiz turlari xushbo'y, ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi to'rt qirrali, tik o'suvchi, shoxlangan va tuklar bilan qoplangan. Bargi lansetsimon yoki cho'ziq arrasimon qirrali, o'tkir uchli, bandsiz yoki qisqa bandi bilan poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari poya uchida halqasimon to'pgulni tashkil etgan. Mevasi – tuxumsimon silliq, to'rtta yong'oqcha. (3.12 rasm)

Iyun - avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentyabrda yetiladi.

Qoqio'tdoshlar oilasi

Asteraceae


Sachratqi turkumi

Cichorium

Sachratqi

Cichorium inthybus L.

Sachratqi O'zbekistoning deyarli hamma tumanlaridagi dalalarda, ekinzorlarda, bog'larda tog' tumanlarda va boshqa yerlarda o'sadi.



3.11. Rasm. Arslonquyruq - *Leonurus leonurus* L.



3.12. Rasm. Yalpiz - *Mentha piperita* L

Sachratqi ko'p yillik, bo'yi 30-100 sm gacha yetadigan o't o'simlik. Oyasi tik o'suvchi, shoxlangan. Ildizoldi to'pbarglari bandli, patsimon qirqilgan. Poyadagi barglari lansetsimon, yirik tishsimon qirrali (yuqori qismidagilari tekis qirrali) bo'lib, poyada bandsiz ketma-ket o'rnashgan. Gullari havo rang savatgacha to'plangan savatchaga to'plangan. Mevasi – sarg'ish – qo'ng'ir rangli, uchmali pista. (3.13 rasm)

Iyun oyidan boshlab kech kuzgacha gullaydi va mevasi pishadi.

Shuvoq turkumi

Artemisia l.

Achchiq shuvoq

Artemisia absinthium L.

Achchiq shuvoq ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi qisqa va qalin kumush rang tuklar bilan qoplangan, tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan, balandligi 50-150 sm. Ildizoldi barglari uzun bandli, 3 karra patsimon ajralgan, poyaning o'rta qismlaridagi qisqa bandli, 2 karra patsimon ajralgan, yuqoridagilari bandsiz, patsimon yoki butun, barglari poyada ketma-ket joylashgan. To'pguli ro'vaksimon. Savatchasi sharsimon, eni 2-4 mm, 40-90 gulli, savatchadagi barcha gullari sariq rangda. Mevasi cho'ziqroq, qo'ng'ir rangli pistacha. (3.14 rasm)

May-iyun oylarida gullab, mevasi avgust-sentyabrda pishib yetiladi.

Qoraqiz turkumi

Bidens l.

Uch bo'lakli qoraqiz

Bidens tripartita L.

Uch bo'lakli qoraqiz bir yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, deyarli asosidan shoxlangan, tuksiz yoki siyrak tukli, balandligi 20-60-(80) sm.



3.13. Rasm. Sachratqi - *Cichorium intybus* L.



3.14. Rasm. Achchiq shuvoq - *Artemisia absinthium* L.

Bargi oddiy, uch bo'lakka chuqur qirqilgan, bo'lakchalari nashtarsimon, barg bandi qanotchasimon, qarama-qarshi o'rnashgan. Mevasi cho'ziq, teskari tuxumsimon pista. (3.15 rasm)

Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda mevasi yetiladi.

Qoqio't turkumi

Taraxacum l.

Dorivor qoqio't

Taraxacum officinale web.

Dorivor qoqio't ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi yaxshi rivojlanmagan. Gul o'qi yo'g'on, uzunligi 15-50 sm, ichi kovak. Barglari ildiz oldida (bo'g'zida) joylashgan, qisqa bandli, nashtarsimon yoki cho'ziq-nashtarsimon, patsimon kesilgan, uzunligi 10-25 sm, tukli. Gullari savatchalarda o'rnashgan, savatchasi yirik, diametri 3-4 sm, gul o'qining uchida bittadan o'rnashgan. Gullari sariq rangli. Mevasi uchmali pista (3.16 rasm).

Aprel-may oylarida qiyg'os gullab, mevasi meva hosil qiladi. Ba'zan gullab, meva berish bahordan kuzgacha davom etadi.

Qo'ypechakdoshlar oilasi

Convolvulacae

Qo'ypechak turkumi

Convolvulus

Qo'ypechak

Convolvulus arvensis L.

Qo'ypechak ko'p yillik, bo'yi 40-100 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi ingichka, sudralib va chirmashib o'suvchi, ko'p qirrali. (3.17 rasm). Bargi nayzasimon bo'lib, poyasi uzun bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Gullari oq yoki pushti



3.15. Rasm. Uch bo'lakli qoraqiz - *Bidens tripartita* L.



3.16. Rasm. Dorivor qoqio't - *Taraxacum officinale*



3.17. Rasm. Qo'ypechak - *Convolvulus arvensis* L.

rang, voronkasimon, barg qo'ltig'ida uzun bandi bilan joylashgan. Mevasi – keng tuxumsimon, ikki urug'li va ikki chanoqli ko'sak.

May - avgust oylarida gullaydi, mevasi iyun-sentyabrda yetiladi.

O'simlik tarkibida flavonoidlar, kofe kislota, karotin, vitamin S, smoralar va alkaloidlar bor.

Abu Ali ibn Sino qo'ypechak o'simligini astma, o'pka, jigar, taloq, ko'krak og'rig'i kasalliklarni davolashda hamda o't haydovchi dori sifatida qo'llagan.

Xalq tibbiyotida quritilmagan barg shirasini mol yog'i bilan aralashtirib, o'pka va quloq kasalliklariga davo qilinadi. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma bilan yaralar, tananing urilab, ko'kargan yeri yuviladi. Bulardan tashqari, qaynatma temiratki va qo'tirga ham davo qilinadi. Barg poroshogi yaralar, jarohatlar ustiga sepiladi.

XULOSALAR

1. Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o'simliklarning 17 oila 25 turkum va 25 turga kirishini aniqlandi.

2. Eng ko'p tur Qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasida (4 tur, 16%), keyingi keyingi o'rinda Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasida (3 tur, 12%), uchinchi o'rinda Karamdoshlar (Brassicaceae) va Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilalarida (2 turdan, 8%). Hamma qolgan turkumlarda 1 turdan (4%) mavjud.

3. Dorivor o'simliklar hayotiy shakliga ko'ra bir yillik o'tlar (9 tur), ikki yillik o'tlar (1 tur), ko'p yillik o'tlar (15 tur) o'simliklar ekanligi o'rganildi.

TAVSIYALAR

“Payariq tumani dalalarida tarqalgan dorivor o’simliklar va ulardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo’yicha olingan ma’lumotlar.

1. Umumta’lim maktablarida, akademik lisey va kasb – hunar kollejlarda botanika darslarida qo’llanma tarzida tavsiya etish mumkin.
2. Viloyat tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi va ekologiya boshqarmasi xodimlari uchun targ’ibot va tashviqot ishlarida manba tariqasida foydalanishni tavsiya etish mumkin.
3. Olingan ma’lumotlar “Yuksak o’simliklar sistematikasi, mahalliy o’simliklar, foydali o’simliklar, dorivor o’simliklar” fanlaridan leksiya va amaliyot darslarida foydalanishni tavsiya etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABAYOTLAR

1. Белолипов М.В., Гостелова Г.Г., Титова О.А. Мир растений Узбекистана Ташкент. Ўқитувчи 1997г, 171с.
2. Бурмистрова А.И., Никитина. Медоносные растения и их пыльца. Москва Росагропромиздат. 1990г, 25,60с.
3. Васильев А.Е. Ботаника. Морфология и анатомия растений. Москва. «Просвящение» 1988.с. 447-461.
4. Вульф Е.В., Мангиева О.Ф. Мировые ресурсы полезных растений Л; 1969г, 84с.
5. Закиров К.З. Флора и растительность бассейна реки Зарафшан г. I Ташкент. 1955г.
6. Закиров К.З. Флора и растительность бассейна реки Зарафшан г. II Ташкент. 1961г.
7. Короткова Е.Е., Хамидходжаева С.А. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений ССР М. 1976г. 317с.
8. Кудряшов С.П. Флора Узбекистана Ташкент. Изд-ва. АН. Уз. ССР. 1961г. 500с.
9. Коровин Е.П. Растительный покров Средней Азии и Южного Казахстана. Ташкент. Изд-во АН Уз. ССР. 1961г. 2 т. 547 с.
10. Курсанов Л.И., Комарницкий Н.А. Ботаника “Средняя и высшая школа” Уз. ССР. Ташкент 1963г.
11. Ковалевская С.С. Определитель растений Средней Азии. Изд-во АН. Уз. ССР. 300с.
12. Лавренов В.К., Лавренова Г.В. Современная энциклопедия лекарственных растений. Изд-во Дом «Нева» Санкт-Петербург Москва 2006. 250 с.
13. Мазнев Н.И. Лекарственные растения. Изд-во “Лада” 2006г. 950с.
14. Набиев М.М. Ботаника атлас - луғати Тошкент. “Фан” 1969 й. 250 б.

15. Пратов Ў.П., Набиев М.М. Ўзбекистон юксак ўсимликларининг замонавий тизими “Ўқитувчи” Тошкент 2007 й.
16. Хамидов А., Набиев М., Одилов Г. Ўзбекистон ўсимликларининг аниқлагичи. Тошкент “Ўқитувчи” 1987й. 200 б.
17. Ҳайдаров Ҳ.Қ., Хожиматов Қ.Х. Ўзбекистоннинг ўсимликлари. Тошкент “Ўқитувчи”. 1985й. 12-40 б.
18. Холматов Х.Х., Пратов У.П., Маҳсумов М.Н. Асоратсиз дори – дармонлар “Ўқитувчи” нашриёти. Тошкент 2006. 20 б.
19. Холматов Х.Х., Хабибов З.Х. Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари. “Медицина” нашриёти. Тошкент 1976. 145б.
20. Черепанов С.К. Сосудистые растения России и сопредельных государств (в пределах бывшего СССР). СПб, 1995. 991 с.
21. Илмий – оммабоп. Интернет журнал. <http://www.iworld.ru>
22. Россия кутубхоналари <http://www.libs.ru>
23. Очиқ электрон кутубхона <http://orel.rsl.ru>
24. Биология <http://www.bio.msu.ru>
25. Ўзбекистон Интернет тармоғи <http://ziyonet.ru/>